



## SANGZOR BASIN WATER RESOURCES AND SOURCES OF THEIR POLLUTION

*Laziza Irkinova*

*Student*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh. Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Sangzor basin, hydrographic, surface and underground waters, rivers, streams, watercourses, catchment area.

**Received:** 23.07.24

**Accepted:** 25.07.24

**Published:** 27.07.24

**Abstract:** The regime of surface and underground waters that formed the hydrographic network of the Sangzor basin and the factors affecting them were scientifically and practically studied.

## SANGZOR HAVZASI SUV RESURSLARI VA ULARNI IFLOSLOVCHI MANBALAR

*Laziza Irkinova*

*Talaba*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax. O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Sangzor havzasi, gidrografik, yer usti va yer osti suvlari, daryolar, soylar, suv oqimlari, suv yigʻuvchi havza.

**Annotatsiya:** Sangzor havzasi gidrografik toʻrini hosil qilgan yer usti va yer osti suvlari rejimi va ularga taʼsir etuvchi omillar ilmiy-amaliy jihatdan oʻrganib chiqilgan.

## ВОДНЫЕ РЕСУРСЫ САНГЗОРСКОГО БАСЕЙНА И ИСТОЧНИКИ ИХ ЗАГРЯЗНЕНИЯ

*Лазиза Иркинова*

*Студент*

*Джизакский государственный педагогический университет*

*Джизак. Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Сангзорский бассейн, гидрографические, поверхностные и подземные воды, реки, ручьи, водотоки, водосборный бассейн.

**Аннотация:** Научно и практически изучен режим поверхностных и подземных вод, образующих гидрографическую сеть бассейна Сангзора, и факторы, влияющие на них.

## KIRISH

Sangzor havzasining yer usti gidrografik to'ri notekis tarqalgan. Eng ko'p daryolar va vaqtincha oquvchi suv oqimlari Chumqor tog' tizmasining shimoliy yonbag'irlarida tarqalgan. Molguzar tizmasining janubiy yonbag'irlarida esa oquvchi daryolar kam.

Chumqor tog'ning shimoliy yonbag'irlaridan oquvchi daryolar ancha uzun va sersuvdir. Molguzar tog'ning janubiy yonbag'ridan oquvchi daryolar asosan juda kichik, ularning boshlanishi 1500-2200 m balandlikda yotadi. Yirik suv oqimlari bu yerda yo'q.

## ASOSIY QISM

Sangzor havzasi tog' soylarining suv oqimi qorlarning erishidan va yomg'ir suvlaridan va yer osti suvlaridan oziqlanadi. Biz o'rganayotgan hududning eng sersuv va doimiy suv arteriyasi bu Sangzor daryosidir. Sangzor daryosining yillik suv harajatini oylar kesimida ko'rib o'tamiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Sangzor daryosining asosiy suv harajatlari, m<sup>3</sup>/sek

Daryo nomi	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Sangzor	3,7	4,17	5,2	10,5	8,54	10,4	12,7	10,9	5,73	3,8	3,77	3,0

Sangzor daryosi Chumqortog' tizmasining shimoliy yonbag'ridan 3300 m balandlikdan boshlanib, G'uralash va Jontik daryolarining qo'shilidan hosil bo'ladi. Sangzor nomini olgandan keyin Molguzar tog'larini aylanib o'tib, Jizzax vohasiga quyiladi. Daryoning umumiy suv yig'uvchi havzasi 2580 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Umumiy uzunligi daryo boshlanishidan Qilli qishlog'igacha 123 km ga teng. To'yinish xarakteriga ko'ra va suv harajatining rejimi bo'yicha qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi (Shuls, 1965). O'rtacha suv harajati 6,90 m<sup>3</sup>/sek bo'lib, maksimal suv harajati iyul oyida 12,17 m<sup>3</sup>/sek. Eng kami esa dekabr oyiga to'g'ri kelib 3,0 m<sup>3</sup>/sek ni tashkil etadi. Yanvar va fevral oylariga kelib suv miqdori sekin ko'paib, mart oyidan boshlab daryo vodiysi o'zidagi qorlarinng erishi, bahorgi yomg'irlarning yog'ishi bilan suv harajati keskin ko'payadi. Aprel oyida mart oyidagiga nisbatan ikki barobar ko'payib (10,54 m<sup>3</sup>/sek) birinchi suv toshqini kuzatiladi. Bu tog'larning pastki qismidagi va Molguzar tog'ining janubiy yonbag'ridagi qorlarinng erishi bilan bog'liq. Iyun oyida ikkinchi suv toshqini kuzatiladi, bu tog'larning yuqori qismidagi va Chumqor tog'ning shimoliy yonbag'ridagi qorlarning erishi bilan bog'liq. Sentyabr oyida suv harajat keskin kamayadi.

Ayrim sernam yillari Sangzor daryosining suv harajati unig ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichidan keskin oshib ketadi. Masalan, sernam bo'lgan 1969 yilda maksimal suv harajati 300 m<sup>3</sup>/sek, sel oiqimi harajatga 411 m<sup>3</sup>/sek yetdi.

Sangzor daryosi Molguzar tog'laridan tekislikka chiqqandan keyin Jizzax vohasida to'lig'icha sug'orishga sarflanadi.

*Yer osti suvlari.* Sangzor daryosi havzasida osti suvlarining hosil bo'lish jarayonlari butun O'rta Osiyo regionalaridek vertikal zonallik qonuniyatiga bo'ysinadi. Hosil bo'lish sharoitiga va ma'lum geologo-litologik komplekslarga mansubligiga hamda harakat qilish harakteriga qarab ularni quyidagi tiplarga ajratiladi:

- o'rtacha balandlikdagi va past tog'lardagi paleozoy tog' jinslari yoriqlaridagi suvlar;
- tog' oldi prolyuvial tekisligidagi yer osti suvlari;
- Sangzor daryosining terrasalashgan alyuyuvial tekisligidagi suvlar.

O'rtacha balandlikdagi va past tog'lardagi paleozoy tog' jinslari yoriqlaridagi suvlar paleozoy tog' jinslarining juda ham yoriqlarga boyligi, tektonik jihatdan buzilganligi va erozion parchalanganligi atmosfera yog'in-sochinlari hisobidan yer osti suvlarini to'plash uchun juda qulay sharoit tug'diradi. Yer osti suvlari yeri yuzasiga bevosita yoriqlardan yoki yoriqlarni bekitib yotgan delyuvial tog' jinslari orasidan chiqadi. Paleozoy tog' jinslarining suvga boyligi sersuvligi ko'p jihatdan tog' jinslarining litologik tarkibiga bog'liq. Eng sersuv ko'p suv saqlovchi tog' jinslari ko'p parchalangan, yoriqlarga boy ohaktoshlardir. Yoriqlarga boy va karst hodisasi rivojlangan ohaktoshlar bilan doimiy oquvchi harajati 50-70 l/sek bo'lgan buloqlarning hosil bo'lishi bog'liq. Masalan, Chumqortog' tizmasining shimolida Novqa qishlog'ida joylashgan Novqa bulog'idir. Novqa bulog'ining suv harajati 1700 l/sek yoki Molguzar tog'ining janubida joylashgan Avliyo buloq. Uning suv harajati 100 l/sek.

Paleozoy tog' jinslari yoriqlaridagi suvlar ko'p hollarda kichik daryochalarning shakllanishida boshlanishida muhim rol o'ynaydi.

*Tog' oldi prolyuvial tekisligidagi yer osti suvlar.* Tog' oldi prolyuvial tekisligi uchun, tog'li rayonlardan yer osti oqimi bilan hosil bo'lgan tranzit, yer osti suvlari hamda atmosfera suvlarining va tog'lardan soylar bo'ylab oqib keluvchchi vaqtincha suv oqimlarining singishi (filtratsiyasi) xarakterlidir.

Tog' oldi tekisliklarining gidrogeologik sharoiti ko'pgina omillar jumladan, geologik tuzilishiga, tog' jinslarining litologik tarkibiga, balandligiga va iqlim sharoitiga bog'liq. Prolyuvial tog' jinslarida yer osti suvlarining yuzasi tekis tarqalgan bo'lib, ularning qiyaligi yer yuzasi nishabligi bilan muvofiq bo'ladi. Yer osti suvi geomorfologik sharoitiga qarab turli chuqurliklarda yotadi. Yer osti suvlarining chuqur yotishi (120 m) tog' oldi zonasida ya'ni konussimon chiqindilar keng tarqalgan, prolyuvial yotqiziqalar saralanmagan materiallarga boy joylarda tarqalgan. Tog'dan uzoqlashgan sari tog' oldi tekisliklarining nishabligi keskin pasayadi va litologik tarkibida glina va lyossimon suglinaklar suvni o'tkazish qobiliyati pasayadi hamda yer osti suvlari yer betiga yaqinlashadi. Hatto ayrim joylarda yer betiga buloq sifatida chiqadi.

## XULOSA

Sangzor daryosi terraslashgan allyuvial tekisliklaridagi grunt suvlari. Sangzor havzasining g'arbiy qismida hozirgi zamon to'rtlamchi davr yotqiziq-lari – suglinak, supes, shag'al toshlarning qalinligi 35 m dan 45 m gacha. Bu yerda yer osti suvlarining hosil bo'lishi juda qulay. G'ovak jinslarning qalinligi turli gorizontlarining yaxshi suv o'tkazuvchanligi, daryo vodiysining atrofdagi o'rab turgan tog'larga nisbatan pastlikda joylashganligi, grunt suvlarining asosiy oziqlanish manbai daryo o'zani suvlaridan, ariqlardan singish, o'rab turgan tog' oldi rayonlaridan va tog'lardan, keladigan yer osti suv oqimlari hisoblanadi. Hozirga qadar bu hududdagi yer osti suvlarining hosil bo'lish jarayonlarining miqdoriy o'lchamlari yo'q.

Sangzor daryosi terraslashgan allyuvial tekisliklaridagi grunt suvlarining chuqurligi, rejimi bevosita daryo suvining harajati bilan bog'liq. Yer osti suvining maksimal yuzasi daryo suv harajatining ko'payishidan keyin, ya'ni aprel oyida kuzatiladi.

Yer osti suvining chuqurligi 2-3 m dan 5-6 m gacha yetadi. Yer osti grunt suvining umumiy oqimi asosan daryo vodiysining markaziga va quy oqimiga qarab yo'nalgan. Gurunt suvlari ximik tarkibi bo'yicha gidrokarbonat tipiga mansub bo'lib, chuchuk hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekov L.A, Nishonov S.A Prirodnie uslovnaya i resursi Djizakskoy oblasti – Tashkent. Uzbekistan. 1978. 255 s.
2. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. 1-qism. –Samarqand, 2006.
3. Alimqulov N.R. Jizzax viloyati landshaft-ekologik sharoitini o'rganishning asosiy ilmiy natijalari. Hozirgi zamon geografiyasi; nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materallari.-Toshkent: 2006.
4. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1996
5. G'o'dalov M.R. Jizzax viloyati tabiatini muhofaza qilish. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014
6. Xakimov Q., G'o'dalov M. Jizzax viloyati geografiyasi. – Jizzax: Sangzor, 2006.
7. O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Baxmal tumani pasporti. – Jizzax: O'smat, 2011. – B. 3-4.
8. O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati, Baxmal tumani qishloq xo'jalik xaritasi. M. 1:50 000. – Toshkent, – 2004.